ADABIY JANRLAR TIZIMI VA DRAMA TURINING SHAKLLANISHI

Tojiboyeva Soliha Baxtiyor qizi

Oriental universiteti, “Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili)” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Raxmatova Bahora Ibodulla qizi

Oriental universiteti Tillar-2 kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada adabiyotshunoslikdagi adabiy janrlar tizimi va drama turining tabiati hamda tarixiy shakllanish bosqichlari nazariy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Aristoteldan zamonaviy adabiyotshunoslikkacha bo‘lgan estetik qarashlar asosida janrlarning dinamik tabiati, drama turining sintetik xususiyati va uning antik davrdan postmodernizmgacha bosib o‘tgan evolyutsion yo‘li yoritiladi. Shuningdek, jahon dramaturgiyasi tajribasining o‘zbek milliy dramaturgiyasi rivojiga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: adabiy janr, drama, tragediya, komediya, badiiy konflikt, katarsis, epik teatr, absurd teatri, dramatizm, milliy dramaturgiya.

Аннотация. В статье с теоретико-философской точки зрения анализируются система литературных жанров и этапы формирования драмы как литературного рода. Раскрывается динамическая природа жанров и синтетическая сущность драмы.

Ключевые слова: литературный жанр, драма, трагедия, художественный конфликт, катарсис, эпический театр, театр абсурда.

Annotation. The article analyzes the system of literary genres and the nature and historical stages of the formation of drama as a literary type from a theoretical and philosophical perspective. Based on aesthetic views from Aristotle to modern literary criticism, it reveals the dynamic nature of genres, the synthetic essence of drama and its evolutionary path from antiquity to postmodernism, as well as the influence of world dramaturgy on the development of Uzbek national drama.

Key words: literary genre, drama, tragedy, comedy, artistic conflict, catharsis, epic theatre, theatre of the absurd, dramatism, national dramaturgy.

Kirish. Jahon so‘z san’atining ko‘p asrlik taraqqiyoti davomida badiiy asarlarni muayyan guruhlarga adabiy janrlarga ajratib o‘rganish adabiyotshunoslikning eng fundamental mezonlaridan biri bo‘lib kelgan. Adabiy janrlar tizimi va uning rivojlanish jarayoni shunchaki shakliy o‘zgarishlar zanjiri emas, balki insoniyat tafakkuri, ijtimoiy ong va estetik qarashlar evolyutsiyasining bevosita in’ikosidir. Ushbu tizimda badiiy adabiyotning uchta yirik turidan biri - drama o‘zining sintetik tabiati, hayot voqeligini bevosita harakat va dialog orqali jonlantirish xususiyati bilan alohida ajralib turadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, dramatizm tabiatini va uning nazariy-falsafiy asoslarini chuqur anglash muayyan dramatik asarlarni ilmiy jihatdan to‘g‘ri tahlil qilish uchun zaruriy poydevor hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi adabiy janrlar tizimining tarixiy taraqqiyoti hamda drama turining tabiati va shakllanish bosqichlarini nazariy manbalar asosida umumlashtirib yoritishdan iborat.

“Janr” tushunchasi fransuzcha genre, lotincha genus so‘zlaridan olingan bo‘lib, jins, tur, xil ma’nolarini anglatadi va badiiy ijodda syujet, kompozitsiya, obrazlar tizimi hamda til xususiyatlarining tarixan shakllangan barqaror tiplarini ifodalaydi. Biroq janr qotib qolgan qolip emas: adabiyotshunos V. Jirmunskiy ta’kidlaganidek, u davrning ijtimoiy-madaniy ehtiyojlariga

javob beradigan, doimiy harakat va yangilanishda bo‘lgan tirik estetik tizimdir. Demak, janrlar tizimini tahlil qilish, avvalo, uning tarixiy dinamikasini hisobga olishni taqozo etadi.

Adabiy janrlarni ilmiy tasniflashning tamal toshini buyuk yunon mutafakkiri Aristotel miloddan avvalgi IV asrda yozilgan “Poetika” risolasida qo‘ygan edi. U voqelikni badiiy aks ettirish usuliga ko‘ra adabiyotni uch yirik turga epos, lirika va dramaga ajratdi hamda ularning ichki janriy bo‘linishlarini asoslab berdi. Keyinchalik XVII asr fransuz klassitsizmi davrida Nikola Bualo bu tizimni qat’iylashtirib, janrlarni “oliy” (tragediya, qasida, epopeya) va “quyi” (komediya, satira, masal) turlarga ajratdi va ularning chegaralarini keskin belgilab qo‘ydi. Ammo adabiy jarayon bir nuqtada qotib qolmadi: XIX asrga kelib romantizm va realizm oqimlari klassitsizmning qat’iy qoliplarini parchalab, janrlararo sintezga — lirik-epik va dramatik dostonlar kabi aralash shakllarning rivojiga yo‘l ochdi. I. V. Gyote adabiyotning hikoya qiluvchi, jo‘shqin va harakatlanuvchi uchta tabiiy shakli ko‘pincha birgalikda amal qilishini, eng mukammal asarlarda esa ularning bir-biriga singib ketishini qayd etgan edi.

Epos turining taraqqiyoti insoniyatning mifologik tafakkurdan realistik dunyoqarashga o‘tish yo‘lini aks ettiradi. Uning eng qadimgi va ulug‘vor shakli bo‘lmish epopeya hamda xalq qahramonlik dostonlari (“Gilgamesh”, “Iliada”, “Odisseya”, “Alpomish”) muayyan millat yoki butun insoniyat taqdiridagi burilish nuqtalarini monumental tarzda tasvirladi. Burjua munosabatlarining rivojlanishi bilan epopeya o‘rnini yangi davrning yetakchi janri roman egalladi. M. Baxtin romanni doimo shakllanish jarayonida bo‘lgan, tugallanmagan va eng moslashuvchan janr deb baholagan bo‘lsa, D. Lukach uni “burjua epopeyasi” sifatida talqin etib, qahramonning hayot ma’nosini izlab butun jamiyat bilan to‘qnashuvini roman mohiyatining o‘zagi deb ko‘rsatdi. O‘zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” bilan bu janrning milliy maktabini yaratdi.

Lirika turi inson ichki dunyosining, subyektiv kechinmalarining dialektikasini ifodalashga xizmat qildi. Antik qasida va elegiyalardan tortib Sharq mumtoz adabiyotidagi g‘azal, ruboiy, qit’a, tuyuq kabi janrlar qalbning eng nozik tebranishlarini ifodalashning mukammal qoliplari edi; Alisher Navoiy ijodida g‘azal falsafiy-tasavvufiy mushohada minbariga aylandi. XX asrga kelib simvolizm, futurizm, akmeizm ta’sirida lirika an’anaviy qofiya va vazndan voz kechib, erkin she’r (verlibr) ustuvorlik kasb etdi. Y. Ayxenvald lirikani vaqtning lahzalarga bo‘linishi va har bir lahzaning abadiylikka aylanishi, o‘z ohangini zamon nafasiga moslab boruvchi tur sifatida ta’riflagan edi.

Hozirgi adabiy jarayonda, ayniqsa postmodernizm davrida janrlarning an’anaviy chegaralari xiralashib, o‘zaro qorishib ketish tamoyili yetakchilik qilmoqda. Sof holdagi roman, doston yoki pyesa o‘rnini roman-insho, hujjatli-badiiy (non-fiction) asarlar, fentezi va sehrli realizm unsurlari uyg‘unlashgan aralash janrlar egallamoqda. Bu esa janr tushunchasi o‘lik dogma emas, balki har bir yangi davrning ijtimoiy-psixologik ehtiyojlariga mos ravishda yangilanib boruvchi jonli va dinamik mezon ekanligini tasdiqlaydi.

Drama grekcha drao (“harakat”, “amal”) so‘zidan olingan bo‘lib, hayot voqeligini qahramonlarning nutqi (dialog va monolog) hamda bevosita xatti-harakatlari orqali tomoshabin ko‘z o‘ngida jonlantirish xususiyatiga ega. Adabiyotshunoslikda u keng ma’noda epos va lirika bilan bir qatordagi yirik adabiy tur, tor ma’noda esa tragediya va komediyadan keyin shakllangan mustaqil janr sifatida qo‘llaniladi. V. Belinskiy dramaning adabiy turlar tizimidagi o‘rnini baholab, uni she’riyat turlarining oliy nuqtasi deb atagan: drama eposning obyektivligini lirikaning subyektivligi bilan birlashtirib, voqelikni tirik harakatda va hozirgi zamonda namoyon etadi. Aynan shu sintetik tabiat drama turining o‘ziga xosligini belgilaydi.

Dramaning ilk shakllanish bosqichi qadimgi mifologik tasavvurlar, ritual marosimlar va hosildorlik xudosi Dionis sharafiga uyushtirilgan bayramlar bilan bog‘liq. Miloddan avvalgi VI–V asrlarda Qadimgi Yunonistonda diniy o‘yinlar va xor qo‘shiqlaridan professional teatr hamda uning egizak janrlari tragediya va komediya ajralib chiqdi. Esxil pyesaga ikkinchi aktyorni olib kirib haqiqiy dramatik konfliktga asos solgan bo‘lsa, Sofokl uchinchi aktyorni qo‘shib syujet dinamikasini murakkablashtirdi. Antik dramada fojiani harakatga keltiruvchi bosh kuch inson irodasidan ustun turuvchi qismat taqdir hukmi edi. Aristotel “Poetika”da tragediyani jiddiy va yakunlangan harakat taqlidi deb ta’riflab, uning maqsadi tomoshabinda dahshat va achinish hissini uyg‘otish orqali qalbni poklash katarsisga erishish ekanini asoslab berdi.

O‘rta asrlarda Yevropada xristianlik mafkurasi ta’sirida misteriya, moralite va mo‘jizakorlik kabi diniy-didaktik janrlar ustuvorlik qildi. Uyg‘onish davriga kelib esa drama dunyoviy va insonparvarlik g‘oyalarining bosh minbariga aylandi; bu bosqichning cho‘qqisi Uilyam Shekspir ijodidir. Shekspir dramani antik davrning qat’iy qoliplaridan, vaqt va makon birligi haqidagi dogmatik qoidalardan xalos etdi. Uning asarlarida konflikt ilohiy kuchlar o‘rtasida emas, bevosita insonning ichki olamida, uning ehtiroslari, vijdoni va jamiyat bilan to‘qnashuvida namoyon bo‘ldi. S. T. Kolrij ta’kidlaganidek, Shekspir qoliplangan personajlar emas, sahnada mustaqil fikrlaydigan, o‘zgaruvchan va o‘z taqdirini ongli tanlaydigan tirik inson tabiatini kashf etadi.

XVII–XVIII asrlarda klassitsizm dramani qaytadan oqilona qoidalarga bo‘ysundirishga urindi: Bualo, Kornel va Rasin asarlarida “uch birlik” (vaqt, makon va harakat birligi) qonuni qat’iy talab qilib qo‘yildi. Ma’rifatchilik va realizm esa adabiyot maydoniga yangi ijtimoiy qatlamlarni olib kirib, sof tragediya va komediyadan farq qiluvchi yangi janr burjua dramasi (yoki oddiygina “drama”)ning shakllanishiga olib keldi. D.Didro va G.E.Lessing oddiy kishilarning oilaviy va ijtimoiy hayotini tasvirlovchi jiddiy pyesalarga ehtiyojni asoslab berdilar. Gyote dramatik san’atning bosh vazifasini shaxsiy xohish-istaklar (ichki kuch) bilan tashqi sharoit yoki majburiyatlar (tashqi kuch) o‘rtasidagi muqarrar kurashni ko‘rsatishda deb bildi, Lessing esa komediya kulgi orqali insonlarni o‘z nuqsonlaridan uyalishga undashini, ya’ni mantiq va sog‘lom fikr orqali axloqni shakllantirishini ta’kidladi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida drama taraqqiyotida tub burilish yuz berdi va adabiyotshunoslikka “yangi drama” atamasi kirib keldi. Henrik Ibsen, Avgust Strindberg, Bernard Shou va Anton Chexov asarlarida tashqi syujet harakatlari o‘rnini ichki psixologik diskussiya, qahramonlar qalbining ostki qatlamlaridagi yashirin oqim subtekst egalladi. XX asr o‘rtalarida B. Brext epik teatr nazariyasini yaratdi: u tomoshabinni sahnadagi voqealarga ko‘r-ko‘rona hissiy sherik bo‘lishidan saqlab, tahliliy mushohadaga undovchi “begonalashtirish effekti”ni taklif qildi va dramani hissiy aldov emas, ijtimoiy dars bo‘lishi lozim deb hisobladi. Sivilizatsiyalar inqirozi va jahon urushlari daxshatlari fonida esa absurd teatri shakllandi: Semyuel Bekket va Ejen Ionesko an’anaviy syujet, mantiqiy dialog va rivojlanish qonuniyatlarini rad etib, inson borlig‘ining bemaqsadligi va muloqotning ilojsizligini statik sahnalar orqali ifodaladilar.

O‘zbek adabiyotshunosligi va dramaturgiyasi ham o‘ziga xos shakllanish yo‘lini bosib o‘tdi. XX asr boshlarida jadidchilik harakati namoyandalari Mahmudxo‘ja Behbudiy (“Padarkush” dramasi bilan), Abdulhamid Cho‘lpon va Fitrat milliy dramaturgiyaning tamal toshini qo‘ydilar va teatrdan millatni uyg‘otish, ma’rifat tarqatish hamda ijtimoiy illatlarga qarshi kurash quroli sifatida foydalandilar. Keyinchalik Maqsud Shayxzoda, Uyg‘un va Hamid Olimjon ijodida dramatik asarlar professional darajaga ko‘tarildi. Milliy dramaturgiya G‘arb teatr san’atining ilg‘or usullarini o‘zlashtirgan holda, uni sharqona falsafiy dunyoqarash va o‘zbek xarakteri xususiyatlari bilan boyitdi.

Xulosa. O‘tkazilgan nazariy tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, badiiy adabiyotdagi janrlar tizimi qotib qolgan qoliplar majmuasi emas, balki davr va inson tafakkuri bilan birga dinamik tarzda o‘zgarib boruvchi tirik jarayondir. Ikkinchidan, adabiyotning uchta asosiy turi ichida drama o‘zining sintetik tabiati bilan ajralib turadi: u inson ichki kechinmalarini tashqi obyektiv voqelik bilan birlashtirib, hayotni bevosita harakatda aks ettiradi.

Uchinchidan, dramaning antik davrdan bugungi kungacha bosib o‘tgan yo‘li uning bosh falsafiy asosi badiiy konflikt ekanini ko‘rsatadi: antik fojialardagi inson va taqdir to‘qnashuvi keyingi davrlarda shaxsning ichki dunyosiga va ruhiy-psixologik iztiroblariga ko‘chdi, XX asrga kelib esa drama shaxs va jamiyat munosabatlarini tahlil qiluvchi yuksak intellektual darajaga ko‘tarildi. To‘rtinchidan, jahon dramaturgiyasining boy tajribasi o‘zbek milliy dramaturgiyasi rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi va u sharqona zaminda o‘ziga xos tizimga aylandi. Mazkur nazariy asoslar muayyan dramatik asarlarni chuqur va to‘g‘ri tahlil qilish uchun ishonchli ilmiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jirmunskiy V. M. Adabiyot nazariyasi va poetika masalalari. Toshkent: Fan, 1985. B. 112, 145.
2. Aristotel. Poetika / rus tilidan M. Mahmudov tarjimasi. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980. B. 45–48.
3. Gyote I. V. Ob iskusstve i literature. Sobraniye sochineniy v 10 tomax. T. 10. Moskva: Xudojestvennaya literatura, 1980. B. 143, 196.
4. Baxtin M. M. Voprosi literaturi i estetiki. Moskva: Xudojestvennaya literatura, 1975. B. 210.
5. Lukach D. Teoriya romana / Novoye literaturnoye obozreniye. Moskva, 1994. №9. B. 56.
6. Ayxenvald Y. I. Silueti russkix pisateley. Moskva: Respublika, 1994. B. 95.
7. Belinskiy V. G. Razdeleniye poezii na rodi i vidi. Polnoye sobraniye sochineniy. T. 5. Moskva: Izdatelstvo Akademii nauk SSSR, 1954. B. 214.
8. Kolridj S. T. Izbranniye trudi. Moskva: Iskusstvo, 1987. B. 88, 142.
9. Lessing G. E. Gamburgskaya dramaturgiya. Moskva–Leningrad: Academia, 1936. B. 92.
10. Brext B. Teatr: Pyesi. Teoreticheskiye raboti. Statya. T. 5/1. Moskva: Iskusstvo, 1965. B. 77.
11. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O‘qituvchi, 1999. B. 326.